

ABDULLA QODIRIYNING HAYOT YO'LI VA IJODIGA NAZAR

Do'stnazarov Tal'at Bozorboy o'g'li

*Toshkent davlat texnika universiteti "Texnologik mashinalar va jihozlar" yo'nalishi
3 – bosqich talabasi*

Annotatsiya: XX asr yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyondasi, o'zbek romanchiligining asoschisi, 20- yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi, publitsist, hajv ustasi, tilshunos va tarjimon Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprel kuni Toshkent shahrining Eskijo'va mahallasida, bog'bon oilasida dunyoga kelgan.

Kalit so'zlar: Toshpo'lat tajang, Uloqda, Millatimga, Uylanish, Baxtsiz kuyov.

Bo'lg'usi adibning ilk ijodi 1913—1914 yillarda boshlangan bo'lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratdi. Uning «Ahvolimiz», «Millatimga», «To'y» (1914-1915) kabi she'rlari «Oina» jurnalida bosilib chiqqan edi. U o'z millatini ma'rifatga chaqiradi, ma'rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. «Baxtsiz kuyov» (1915) nomli fojeasi, «Juvonboz» (1915), «Uloqda» (1916) kabi hikoyalarda ham o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi. 1924 yili Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib «Mushtum» jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlay boshladidi. Uning «Toshpo'lat tajang nima deydi?» va «Kalvak mahzumning xotira daftaridan» turkumidagi satirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosilib bordi. Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab «O'tgan kunlar» romani uchun material yig'ishga kirishdi. 1922 yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926 yillarda «O'tgan kunlar» uch bo'lim holida kitob» bo'lib nashr etildi. 1928 yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani «Mehrobdan chayon» nashrdan chiqdi. 1934 yilga kelib Abdulla Qodiriy qishloq xo'jaligi mavzuiga bag'ishlangan «Obid ketmon» qissasini yaratdi. Undan tashqari u Gogolning «Uylanish», Chexovning «Olchazor» va boshqa g'arb yozuvchilarining satirik hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qildi. Abdulla

Qodiriy 1934 yilda bo'lib o'tgan Moskvadagi Butunittifoq Yozuvchilarining birinchi qurultoyida qatnashadi. U «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o'g'ri», «Dahshat» kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgani ham ma'lum. Ammo bevaqt o'lim orzulari ro'yobga chiqishiga imkon bermadi. Abdulla Qodiriy 1937 yilning 31 dekabrida qamoqqa olindi. «Menga qo'yilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida hech qanday jazodan, qynoqdan qo'rqlayman. Agar otmoqchi bo'lsalar, ko'kragimni kerib turaman.» Abdulla Qodiriy 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentda otildi.

Yozuvchi o'z tarjimai holida shunday eslaydi: “ — Yoshim to'qqiz-o'nlarg'a borg'on dan so'ng meni mакtabga yubordilar. Mакtabda ikkiuch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtarda oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv biladurg'on odamga muhtoj edi. Shu ta'ma bo'lsa kerak, meni o'ris maktabga yubordi. Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadirg'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim. 1913 yilda o'zbekcha «Sadoi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetalarini chiqqa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi. 1913 yilda chiqqan «Padarkush» ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim (1915 yilda). Yana shu yilda teatrlarda chiqib turg'on hikoyalarga taqlidan «Juvonboz» otliq hikoyachani yozib noshir topilmag'onidan, o'zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg'on dan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozildim. 1918 yil boshlarida eski shahar oziq komiteti boylar qo'lidan olinib, komitetning raislig'iga o'rtoq Sultonxo'ja Qosimxo'jaev tayin qiling'on edi va men mazkur komitetning o'zbekcha sarkotibligiga kirdim. «Mushtum» jurnalining muannisi va tahririya a'zosi bo'lib, to 1924 yilgacha mehnatkashlar manfaatiga xolis ishlab keldim. Shu o'tgan yetti yil orasida Sho'rolar hukumati va firqadan bir og'iz tanbeh olmadim. Xulosa — boshqalarning xizmati daftar bilan sobit bo'lsa, menim xizmatlarim matbuot bilan ravshandir. Ishchi-dehqonlar yozg'on asarlarimni suyunib o'qiydilar va meni yozuvchilar qatoriga kirgazdilar va meni hamon o'qirlar va unutmaslar.» o'z tarjimai holida, — Yoshim to'qqiz-o'nlarg'a borg'on dan so'ng meni mакtabga yubordilar. Mакtabda ikkiuch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtarda

oilamizning nihoyatda qashshoq kun kechirgani vajhidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka berdilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuvchizuv biladurg'on odamga muhtoj edi. Shu ta'ma bo'lsa kerak, meni o'ris maktabga yubordi. Shu miyonalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadirg'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim. 1913 yilda o'zbekcha «Sadoi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetalarini chiqsa boshlag'och, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi. 1913 yilda chiqqan «Padarkush» ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim (1915 yilda). Yana shu yilda teatrlarda chiqib turg'on hikoyalarga taqlidan «Juvonboz» otliq hikoyachani yozib noshir topilmag'onidan, o'zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilg'ondan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozildim. 1918 yil boshlarida eski shahar oziq komiteti boylar qo'lidan olinib, komitetning raislig'iga o'rtoq Sultonxo'ja Qosimxo'jaev tayin qiling'on edi va men mazkur komitetning o'zbekcha sarkotibligiga kirdim. «Mushtum» jurnalining muannisi va tahririya a'zosi bo'lib, to 1924 yilgacha mehnatkashlar manfaatiga xolis ishlab keldim. Shu o'tgan yetti yil orasida Sho'rolar hukumati va firqadan bir og'iz tanbeh olmadim. Xulosa — boshqalarning xizmati daftar bilan sobit bo'lsa, menim xizmatlarim matbuot bilan ravshandir. Ishchi-dehqonlar yozg'on asarlarimni suyunib o'qiydilar va meni yozuvchilar qatoriga kirgazdilar va meni hamon o'qirlar va unutmaslar.»

O'QISH-O'RGANISH (*Mayda hikoyalar yozganda so'zni qanday tejash kerak. Abdulla Qodiriy Chexovni hikoyalari misolida ta'riflab bergen*). Mayda hikoyalar ustasi Chexov so'z to'g'risiga kelganda haddan tashqari xasis, ortiqcha so'zlar sarf qilish u yoqda tursin, kerakliklaridan ham mumkin qadar yulishga harakat qiladi. O'zi aytadi: Mayda hikoyalar yozganda so'zni ortiqcha isrof qilgandan ko'ra kerakliklarini ham mumkin qadar ozroq ishlatish kerak». Uning hikoyalarida so'z isrofgarchiligiga sabab bo'ladigan ortiqcha detallar ham bo'lmaydi. U butun detallarni o'zi aytgan asosda ishlatadi. «Birinchi ko'rinishda miltiq bo'lsa, shu miltiq uchinchi yoki to'rtinchi ko'rinishda albatta otilishi kerak, yo'qsa miltiq to'g'risida so'zlashning hojati yo'qdir». Uning «Buqalamun» hikoyasi ham boshqa hikoyalariday g'oyat siqiq, quyuq yozilgandir. Uning so'zga xasisligi o'quvchiga malol kelmaydi. Ya'ni, aytmoqchi

bo'lgan fikrining tushunilishini og'irlashtirmaydi. «Buqalamun»da voqeа yilning qaysi faslida bo'layotgani aytilmaydi, ammo bundagi so'zlardan faslni aniqlash mumkin (Albatta, bu so'zlar yilning faslini bildirish uchungina keltirilmaydi). «Pal'tomni yechchi, Yeldirin... Kun juda isib ketdi yomg'ir yog'sa ham ajab emas». Quyidagi so'zlardan voqeа tushki ovqatdan keyin bo'layotganini ham bilib bo'ladi: «Tevarak jim. Maydonchada hech kim ko'rinxmaydi. Do'kon va qovoqxonalarning eshiklari ochiq. Huvillab turadilar. Bu eshiklar yonida gadoy u yoqda tursin, bir zog' ham ko'rinxmaydi». Mana bular ikki maqsad ko'zda tutilib aytilgan so'zlar bo'lib, ikkinchi maqsad mantiqiy ravishda birinchisidan kelib chiqadi. Detallar (voqeani tashkil etgan voqeachalar) ham yolg'iz qolib, keraksiz so'z bo'lib qolmaydi. Masalan, hikoyaning boshida «Ochumelov yangi shinel` kiygan», deyilgan ekan, bu nariroqqa borib, shinelning yechilishi, yana kiyilishi bilan bog'lanadi. Xryukinning o'ng qo'lini yuqoriga ko'tarib, xaloyiqqa qonagan barmog'ini ko'rsatishi, uning: «Endi, shu majruh barmog'im bilan ehtimolki bir hafta ishga yaramasman», degan arzi Ochumelovning: «Sen ahmoq, qo'lingni tushir! Ayb o'zingda!», deb qichqirishi bilan bog'langan. Hikoyani «sersuv» (ko'p suvli) qiladigan narsalardan biri ko'rsatish o'rniga so'zlab berishdir. Agar Ochumelovning «Buqalamun» ekanini uning so'zları orqali ko'rsatilmasa, avtor tomonidan ta'riflansa, dunyo-dunyo so'z ketar edi. Chexov buni o'zi aytib bermasdan, Ochumelovning o'z so'zi bilan ko'rsatadi. Ochumelovning dastlabki fikri:— «Itni o'ldirish kerak, quturgan bo'lsa ham ajab emas». It generalga qarashli, deyilgandan keyin:— «It nozik, sen ho'kizday, bo'yingga qara!» Yana, it generalniki emas, deyilgandan keyin:— «Generalning itlari qimmatbaho narsalar edi. Bu bo'lsa, egasiz daydi itga o'xshaydi. Epaqalik yungi ham yo'q. Shunday bema'ni itni ham saqlaydimi kishi!» Yana, it generalniki, deyilgandan keyin:— «Balki qimmatbaho zotli itdir». Oshpaz, it generalniki emas, degandan keyin:— «Bu egasiz daydi it». It generalning ukasiga qarashli ekani ma'lum bo'lganda:— «Yaxshigina it ko'rindi. Ulguncha yugurdak ko'rindi». Mana bu dialoglarga avtorneying hech qanday izohi kerak emas. Bu dialoglar ham voqeani siljitadi, ham hikoya qahramoni Ochumelovni xarakterlaydi. Chexov uslubidagi ayrim xususiyatni sezgan L. Tolstoy bunday degan edi: «Chexovning impressionistlarga o'xshagan o'ziga xos formasi bor. Yaqindan qarasak, xuddi har bir

to'g'ri kelgan va bir-biriga aloqasi bo'limgan bo'yoqlarni farq qilmasdan ishlatganga o'xshaydi, ammo uzoqroqdan qarasang, bu bo'yoqlardan ajoyib bir manzara vujudga kelganini ko'rasan». Tolstoyning bu so'zi Chexovning o'z so'ziga juda mos keladi. U deydi: «Tabiatni tasvir qilishda mayda bo'laklar olish va bularga shunday tartib berish kerakki. o'qib ko'zingni yumganingda ko'z oldingga bir manzara kelsin». «Buqalamun» hikoyasining biron so'zini chiqarib tashlash yoki biron so'zni qo'shish mumkin bo'limganligi, so'zga naqadar diqqat qilinganligini ko'rsatadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Bashir. O'zbek adabiyoti.- Qozon, 1929. B.15
2. Ismatulla X.Abdulla Qodiriy abadiyati. O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1994-yil 14-oktabr
3. B.Karim. Dunyo olimlari nigohi. Avulla Qodiriy va germanevtik tafakkur maqola 2016